SIRKULYAR IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA FISKAL MEXANIZMLARNING TA'SIRI

Sodikov Zokir Rustamovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti
orcid 0000-0002-0195-4573
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513189

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sirkulyar iqtisodiyot rivojlanishida fiskal mexanizmlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, karbon soliqlari va yashil investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari orqali chiqindilarni kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar*: sirkulyar iqtisodiyot, fiskal mexanizmlar, soliq imtiyozlari, karbon solig'i, yashil investitsiyalar.*

Abstract. *This paper analyzes the role and importance of fiscal mechanisms in the development of the circular economy. It examines how tax incentives, subsidies, carbon taxes, and mechanisms for promoting green investments can contribute to waste reduction and efficient resource utilization.*

Keywords*: circular economy, fiscal mechanisms, tax incentives, carbon tax, green investments*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение фискальных механизмов в развитии циркулярной экономики. Рассматриваются возможности сокращения отходов и эффективного использования ресурсов посредством налоговых льгот, субсидий, углеродных налогов и стимулирования зелёных инвестиций.*

Ruscha: *циркулярная экономика, фискальные механизмы, налоговые льготы, углеродный налог, зелёные инвестиции.*

Kirish (Introduction): Sirkulyar iqtisodiyot global miqyosda barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Fiskal mexanizmlar – soliqlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va yashil moliyalashtirish vositalari – sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodlari (Methods): ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, taqqoslash, statistik tahlil, xalqaro tajribani o'rganish metodlari qo'llanildi.

Natijalar (Results): Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tabiiy resurs soliqlari, karbon soliqlari va chiqindilarni qayta ishlashni rag'batlantiruvchi fiskal mexanizmlar resurslardan samarali foydalanishni ta'minlab, sirkulyar iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Milliy iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash bozorini rag'batlantirish uchun ushbu mexanizmlarni joriy etish ustuvor hisoblanadi.

Muhokama (Discussion): Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda sirkulyar iqtisodiyot – globallashib borayotgan muammolarga yechim sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida 18-asrda boshlangan sanoat inqilobi nafaqat qo‘l mehnatidan ishlab chiqarishga o‘tish jarayoni, balki jamiyat va kishilar hayotidagi ulkan o‘zgarishlarning boshlang‘ich nuqtasi ham bo‘ldi. Aynan, atrof-muhitning ifloslanishiga, yerning degradatsiya bo’lishiga, ya’ni, tuproq erroziyasiga, o‘rmonlarning qisqarishiga, biologik xilma-xillikning kamayishiga va iqlim o‘zgarishiga, global miqyosda isishga olib kelgan eng katta sabab dunyoda sanoat ishlab chiqarishidir.

Dunyoda sanoat inqilobi tufayli zamonaviy ishlab chiqarish tizimi shakllanib, natijada milliardlab tonna zaharli moddalar suv, havo va tuproqqa chiqarilib, ekotizimni buzdi hamda biologik xilma-xillikni o’zgartirdi. Umuman jahon miqyosida joriy qilingan ekologik jihatdan neytral texnologiyalarning yo‘qligi atmosfera va suv havzalarining ifloslanishiga hamda chiqindilar hajmining keskin darajada ortishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ekologik vaziyat og’irlashib, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish zaruriyati hozirda eng ustuvor vazifalarga aylangan. Xususan, chiqindilarni betartib chiqarilishi, havo va suv resurslarining ifloslanishi, tabiiy resurslardan ayovsiz, tejamasdan foydalanilishi jahon hamjamiyatini muammoni yechadigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o’tishga majbur qilmoqda. Bundan tashqari, jahonda misli ko‘rilmagan darajada aholining o‘sishi va texnologik yangiliklar kishilar iste’molining keskin ortishiga olib keldi. Bu esa, o‘z navbatida, resurslarning cheklanganligini hisobga olgan holda, insoniyat bugungi kunda duch kelayotgan global miqyosdagi ko’plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar manbayi bo’lmoqda. Zero, 21-asrning 1-choragida dunyo aholisi 8,25 mlrd. kishini tashkil etmoqda. Jahonda aholi sonining o‘sishidan eng ko‘zga ko‘rinadigan salbiy oqibat bu tabiiy resurslardan foydalanishning keskin ortishi, atrof-muhitning ifloslanishi hamda urbanizatsiyaning avj olishi va yer resurslarini jadal o’zlashtirilishi kabi tendensiyalar natijasida kelib ciqadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)[1] tomonidan tayyorlanadigan “Global Material Resources Outlook to 2060” prognozlariga ko‘ra, jahon miqyosida materiallardan foydalanish hajmi yaqin kelajakda bugungi kundagiga nisbatan ikki baravar ko‘payishi kutilmoqda. Shu bois OECD Bosh kotibi bo’lgan Anxel Gurria (Anksel' Gurria, Meksika): *“*Materiallardan foydalanishning o‘sishi, ularni qazib olish, qayta ishlash va chiqindilarning ekologik oqibatlari iqtisodiyotlarimizning resurs bazalariga bosimni kuchaytirishi va kelajakdagi farovonlikni xavf ostiga qo‘yishi mumkin” deb[2] qayd qilgan. OECD tomonidan 2019-yil 12-fevralda global prognoz bo’yicha berilgan bashoratda 2060-yilgacha jahonda xomashyo va materiallardan foydalanish hajmi, tarkibi va ekologik oqibatlari modellashtirilgan bo’lib, unda 61 turdagi material (biomassa, foydali qazilmalar/fosil yoqilg‘i, metallar, no-metall minerallar) qamrab olingan. Bu prognozning asosiy xulosalariga ko’ra dunyo miqyosida materiallardan foydalanish hajmi keyinggi yarim asr mobaynida ikki baravardan ortiqqa oshadi. Xususan, dunyo miqyosida materiallardan foydalanish hajmi 2011 yilda taxminan 79 mlrd. tonnani tashkil etgan bo’lsa, bu 50 yildan keyin, ya’ni, 2060-yilda 167 mlrd. tonnaga teng bo’lishi yoki jahonda yarim asr mobaynida materiallardan foydalanish hajmi 2,1 baravardan ortiqqa ko’payishi kutilmoqda. Global hamjamiyatda materiallar talabi bunday o‘sishining asosiy drayverlari sifatida taxminan dunyo aholisining jadal o’sib 10 mlrd. kishidan ortishi, global miqyosda yalpi ichki mahsulotning hajmi to‘rt baravarga ko’payishi, urbanizatsiyaning faol avj olishi va infratuzilma qurilishlarining jadallik bilan rivojlanishi kabilar

[1] OECD - The Organisation for Economic Cooperation and Development – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti.
[2] Anxel Gurría (Anksel' Gurria, Meksika). https://www.oecd.org/en/publications/global-material-resources-outlook-to-2060_9789264307452-en.html (2006-yil 1-iyundan 2021-yil 31-maygacha OECDning Bosh kotibi lavozimida faoliyat yuritgan).

ko’rsatilmoqda. Ayni paytda, materiallar tarkibi bo‘yicha o‘sishning katta qismi nometall minerallar sifatida qum, shag‘al, sement xomashyolariga hamda fosil yoqilg‘ilariga to’g’ri kelishi kutilmoqda. Shu bilan birga metallar va biomassaning ham oshishi kuzatiladi, ammo, ularning nisbiy ulushi nisbatan kichik hajmlarda bo’ladi. Bundan tashqari, jarayonda alohidalashuv (decoupling) kuzatiladi. Ya’ni, iqtisodiy o‘sish bir birlik YIMga to‘g‘ri keladigan material sarfini kamaytiradi, ammo umumiy material sarfi hajmi baribir ortib boradi. Shu bois bu tendensiya yetarli hisoblanmaydi.

Mazkur jarayonda ekologik oqibatlar sifatida issiqxona gazlari ko’payadi, havoning ifloslanish darajasi ortadi, suv va yer resurslariga nisbatan bosimlar kuchayadi. Bunda, qazib olish va qayta ishlash bosqichlari asosiy ta’sir qiluvchi omillardan bo’ladi. Mintaqaviy jihatdan dinamik tendensiya sifatida materiallardan foydalanishning-intensiv o‘sishining katta qismi bugungi kunda rivojlanayotgan milliy iqtisodiyotlar hissasiga to’g’ri kelayotgan bo’lsa-da, materiallarning jon boshiga iste’moli hisobga olinganda OECD mamlakatlarining ulushi yetakchi va yuqori bo‘lib qolmoqda. Chunki, bu mamlakatlarda xomashyo savdosi va global qiymat zanjirlari muntazam ravishda chuqurlashib bormoqda.

Shuning uchun milliy iqtisodiyotda ekologik muammolarni bartaraf qilish va chiqindilar chiqarish hajmini jilovlash maqsadida xalqaro amaliyotda fiskal mexanizmlardan foydalanish imkoniyat yo’nalishlaridan biri sifatida ko’riladi. Xususan, materiallar bo‘yicha fiskal islohotlar sifatida tabiiy resurs soliqlarini amalga oshirish tavsiya qilinadi. Bunda tabiiy resurslardan soliq undirish, ya’ni, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish yoki ularni qazib olishga qo‘yiladigan moliyaviy majburiyat bo‘lib, ular fiskal islohotlarning muhim vositasi sifatida qo’llaniladi. Buning maqsadi - resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish – korxonalar va iste’molchilar ko‘proq soliq to‘lamasliklari uchun resurslarni tejashga, qayta ishlashga va muqobil materiallardan foydalanishga harakat qiladi. Shuningdek, bu faoliyat davlat byudjetiga barqaror tushum ta’minlab berish usuli bo’lib, resurs soliqlari byudjet uchun qo‘shimcha daromad manbai hisoblanadi. Mazkur soliqni qo‘llanish sohalariga tabiiy qazilma boyliklari sifatida neft, gaz, ko‘mir, metall rudalari, yagona ekologik soliqlar sifatida suv resurslari, yer, o‘rmon va biologik resurslardan foydalanish kabilar kiradi. Shuningdek, karbon solig‘i energiya ishlab chiqarishda chiqindilar hajmiga qarab undiriladi va unga sement, plastik, alyuminiy kabi katta uglerod izi qoldiradigan materiallardan olinadigan soliqlar ham ko’zda tutiladi. Ushbu materiallardan foydalanganlik uchun soliq undirishning afzalliklari sifatida resurslardan ortiqcha foydalanishning cheklanishini, qayta ishlash va “yashil texnologiyalar”ning rag‘batlanishini, bozorni yanada barqaror va raqobatbardosh bo’lishini keltirish mumkin. Shu bilan bir qatorda materiallardan foydalanganlik uchun soliq undirishning o’ziga xos muammoli jihatlari ham mavjud bo’lib, ularga, to‘g‘ri narxlash belgilash masalasi murakkab va qaysi resursga qancha soliq belgilash jumboqli bo’lishini, iqtisodiy yuk riskining aholiga (masalan, elektr yoki benzin narxiga) yuklab yuborilishini, ayrim mamlakatlarda sanoat raqobatbardoshligining pasaytirishini kiritish mumkin. Demak, bu soliqlar iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish maqsadida resurslardan foydalanishga soliq orqali “real xarajat”ni qo‘shish mexanizmi hisoblanadi.

Zero, sirkulyar iqtisodiyot modeli bilan fiskal mexanizmlar o‘rtasida o’zaro bog‘liqlik va bir-birini to’ldiruvchanlik xususiyati mavjud. Aynan, sirkulyar iqtisodiyotning asosiy maqsadi — resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Fiskal mexanizmlar sifatida soliqlar, subsidiyalar, imtiyozlar, moliyaviy rag‘batlar orqali davlat iqtisodiy subyektlarning resurslardan foydalanish,

chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida qarorlar qabul qilishiga ta’sir qiladi va ekologik mas’uliyatni kuchaytiradi. Shu orqali tabiiy resurs soliqlarining ahamiyati kelib chiqadi. Tabiiy resurs soliqlari (resource taxes, extraction taxes) – bu qazib olinadigan xomashyo (neft, gaz, ko‘mir, metall, suv, o‘rmon, tuproq va boshqalar)dan foydalanishga qo‘yiladigan soliqlardan tashkil topadi. Bunday soliqlarning vazifalari bu resurslardan tejamkor foydalanishga undash, qimmat resurslarga qo‘shimcha soliq yuklash orqali korxonalarni qayta ishlashga va muqobil materiallardan foydalanishga yo’naltiradi. Shuningdek, resurslar cheklanganligini aks ettirish – bozorda tabiiy resurslarning real ijtimoiy qiymatini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, byudjetga daromad manbai bo’lib, u mablag‘lar yashil texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashga va chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga sarflanishi mumkin.

Jahon amaliyotida buning aniq namunalarini kuzatish mumkin. Xususan, Finlyandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlarda suv va qazilma boyliklariga joriy etilgan soliqlar qayta ishlash industriyasi rivojlanishiga kuchli ta’sir ko’rsatgan. Sirkulyar iqtisodiyot nuqtayi-nazaridan Finlyandiya tajribasida suv resurslaridan soliq undirish amaliyoti mavjud. Ma’lumki, Finlyandiya ko‘llar mamlakati bo‘lsa-da, suvdan foydalanish solig‘i (Water abstraction charge) joriy etilgan. Bu soliq suvni ko‘p iste’mol qiluvchi sanoat (energetika, pulpa va qog‘oz ishlab chiqarish) uchun mo‘ljallangan bo’lib, korxonalar suvni qayta ishlatish texnologiyalariga o‘tishga majbur bo‘ldi. Natijada, pulpa-qog‘oz sanoatida chiqindi suvni qayta ishlash 90% gacha yetgan. Shuningdek, Finlyandiyada mineral resurslardan foydalanganlik uchun qazilma sanoatlariga soliqlar bosqichma-bosqich oshirib borilgan. Natijada mahalliy sanoatda “foydalanish → tashlash” modelidan “qayta ishlash→ikkilamchi resursdan foydalanish” modeliga o‘tilgan hamda metallurgiya sektorida ikkilamchi mis va alyuminiy ulushi sezilarli darajada ortgan.

Finlyandiyada yuritilgan fiskal siyosatning qayta ishlash industriyasiga ta’siri ham o’ziga xos bo’lib, 2000-yillardan boshlab qog‘oz va plastmassa chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha keng ko‘lamli tizim yaratilgan, fiskal bosim tufayli korxonalar chiqindi sarfini kamaytirib, qayta ishlashga investitsiya kirita boshlagan. Ushbu faoliyat tufayli bugungi kunda Finlyandiya qattiq chiqindilarning taxminan 55–60% ini qayta ishlamoqda.

Sirkulyar iqtisodiyot amaliyotini rivojlantirish borasida Shvetsiya tajribasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, Shvetsiyada suv resurslariga belgilangan soliqlar bevosita qayta ishlash industriyasiga emas, balki energiya va resurs samaradorligiga ta’sir qilgan. Chunki, bu mamlakatda ifloslangan chiqindi suvlar uchun yuqori to‘lovlar belgilangan. Buning natijasi o’laroq korxonalar chiqindi suvlarni tozalash va qayta ishlatish texnologiyalariga sarmoya kiritgan. Shuningdek, Shvetsiya Yevropaning eng yirik temir rudasi eksportchisi bo’lib, u mamlakatda resurs soliqlari va chiqindi poligonlariga solinadigan soliqlar sirkulyar iqtisodiyot modelini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo’lgan. Shu bois, 2000-yillardan boshlab chiqindilarni poligonlarga olib chiqish o‘rniga, uni qayta ishlash va energiya ishlab chiqarishda foydalanish avj olgan. Mazkur chora-tadbirlarning qayta ishlash industriyasiga ta’siri o’ziga xos bo’lib, 2000-yildan keyin chiqindilarni poligonga tashlash 80% gacha kamaygan. Chunki, bu borada belgilangan soliqlar juda yuqori bo‘lgan. Shuning uchun Shvetsiya bugungi kunda chiqindilarning taxminan 99% ini qayta ishlayotgan yoki energiyaga aylantirayotgan mamlakat hisoblanadi. Ayni paytda, bu mamlakatda mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun “Kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (Extended Producer Responsibility-EPR)” tizimi fiskal mexanizmlar bilan uyg‘unlashgan holda tashkil etilgan.

Umumiy xulosa sifatida Finlyandiyada resurs va suv soliqlari sanoatni resurslarni tejash va ikkilamchi xomashyo asosida ishlab chiqarishga majbur qilgan bo'lsa, Shvetsiyada esa fiskal mexanizmlar asosan chiqindini poligondan chetlashtirishni va qayta ishlash hamda energiya olish amaliyotini kuchaytirishga omil bo'lgan. Bundan tashqari, ikkala davlatda ham soliq mexanizmlari sirkulyar iqtisodiyotga o'tishda asosiy rag'batlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan.

Finlyandiya bilan Shvetsiyada sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda fiskal mexanizmlar[3] samarasi

Element	**Finlyandiya**	**Shvetsiya**
Suv soliqlari	Sanoatda suvni qayta sirkulyatsiya qilish tizimini joriy etishga majbur qilgan	Ifloslangan suvni kamaytirish va tozalash texnologiyalariga investitsiya qilish rag'batlantirilgan
Qazilma boyliklari soliqlari	Metallurgiya sanoatida ikkilamchi xomashyo ulushi ortgan	Chiqindini poligonga chiqarish qimmatlashib, qayta ishlash va energiya olish rag'batlangan
Natija	Resurslarni qayta ishlash hajmi taxminan 55–60%gacha chiqqan	Resurslarni qayta ishlash + energiyaga aylantirish taxminan 99%gacha yetgan
Asosiy model	"Ikkilamchi resurslardan foydalanish"	"Chiqindini energiyaga aylantirish + qayta ishlash"

Ayni paytda, jahonda beqiyos muvaffaqiyatlarga erishayotga Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) iqtisodiyotida ham atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni cheklash orqali ekologiyani himoyalashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Xususan, bu mamlakatda ko'mir qazib olish uchun joriy etilgan soliq karbon emissiyalarini kamaytirishda muhim omil sifatida ta'sir qilayotganini ko'rish mumkin. Milliy iqtisodiyot sifatida XXR dunyoda eng katta ko'mir ishlab chiqaruvchisi va iste'molchisi bo'lib, bu mamlakatda yillik elektr energiyasining taxminan 60%dan ortig'i ko'mir hisobiga olinadi. Shu sababli bu mamlakatda karbon (CO_2 - karbon dioksid, karbonat gazi, SO_2 - Sulfur dioksid (Oltingugurt (IV) oksidi), NOx - azot oksidlari) emissiyalarining katta qismi ko'mirga bog'liq holda chiqariladi. Shu bois, Xitoyda ko'mir qazib olish va undan foydalanishni tartibga solish bo'yicha ko'mir qazib olish solig'i 2014-yilda "Resource Tax Reform (Resurs soliq islohoti)" dasturi doirasida ko'mirga nisbatan hajm asosida emas, balki qiymat asosida joriy qilingan. Dastlab, ishlatilgan ko'mirning tonnasi bo'yicha past soliq stavkalari qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik bozor narxiga bog'liq ravishda 3%dan 10%gacha bo'lgan shkala doirasida soliq undirilishi joriy etilgan. Bu soliqdan tashqari "Environmental Protection Tax Law" (Atrof-muhitni muhofazalash bo'yicha soliq qonuni, 2018) qabul qilinishi orqali ifloslantiruvchi korxonalar uchun qo'shimcha xarajatlar keltirib chiqarilgan. Ushbu mexanizm orqali karbon emissiyalariga ta'sir ko'rsatilishi natijasida iqtisodiy rag'bat bo'yicha soliq ko'mir qazib olish tannarxini oshirgan va ba'zi eskirgan shaxtalar yopilishiga olib kelgan. Shuningdek, energiya ishlab chiqaruvchi kompaniyalar arzon va toza muqobil bo'lgan tabiiy gazga, quyosh, shamol energiyalariga o'ta boshlagan.

Bundan tashqari, energiya samaradorligini oshirish borasidagi yondashuvlar tufayli yirik elektr stansiyalarida ko'mir iste'moli kamaygan va energiya intensivligi 2014–2020 yillarda taxminan 19% gacha qisqargan. Qolaversa, karbon emissiyasi ham kamayish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda. Xitoyda, 2014-yildan keyin umumiy energiya balansida ko'mirning ulushi

[3] Mavzuga oid manbalar asosida tuzildi.

bosqichma-bosqich kamaytirilib, borilmoqda. Jumladan, bu ko'rsatkich 2011-yilda 70%ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 56% gacha tushgan. Shuningdek, XXRda 2020-yildan boshlab karbon emissiyasining o'sish sur'ati sezilarli darajada pasayganini xalqaro kuzatuvchilar qayd qilgan. XXRda yashil moliya mexanizmlarini rivojlantirish uchun soliqdan tushgan mablag'lar qayta tiklanuvchi energiya va ekologik loyihalarga yo'naltirilgan. Xitoy milliy iqtisodiyotida ko'mir qazib olish solig'i ko'mir narxini oshirib, muqobil energiya manbalarini raqobatbardosh holatga keltirgan bo'lsa, eskirgan va tabiatni ifloslantiruvchi shaxtalar yopilib, karbon emisiyalarining qisqarishiga yordam bergan. Lekin, XXR iqtisodiyotida hali ham ko'mirga kuchli darajada bog'liqlik mavjud va soliq mexanizmlari faqat boshqa siyosatlar bilan birgalikda (subsidiyalar, kvotalar, yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash) olib borilganda samarali natijalar bergan.

Xulosa (Conclusion): Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib xulosa qilganda, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda fiskal mexanizmlar resurslardan samarali foydalanish borasida iqtisodiy intizomni kuchaytiradigan, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlarning xarajatlarini ko'paytiradigan, qayta ishlash va ekologik innovatsiyalarni iqtisodiy jihatdan jozibador qiladigan amaliyot hisoblanadi. Bundan, barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatni ta'minlashda fiskal mexanizmlar asosiy instrumentlar qatorida xizmat qilayotganligi kelib chiqadi. Shu bois, Fiskal mexanizmlar sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Milliy bozor uchun ushbu mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish, xalqaro tajribadan foydalanish va iqtisodiy tuzilmalarni moslashtirish talab etiladi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIY ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son) qaroriga 1-ILOVA.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son) qaroriga 1-ILOVA
3. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M. P. & Hultink, E. J. (2017) "The Circular Economy — A new sustainability paradigm?", Journal of Cleaner Production, 143, pp. 757–768. https://www.sciencedirect.com.
4. Stahel, W. R. (2013) 'Policy for material efficiency — Sustainable taxation as a departure from the throwaway society', Philosophical Transactions of the Royal Society A, 371(1986). https://royalsocietypublishing.org/doi/10.1098.
5. OECD (2019) Global Material Resources Outlook to 2060: Economic Drivers and Environmental Consequences. Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org/en/ publications/global-material-resources-outlook-to-2060.
6. Svatikova, K., Brown, A. & Börkey, P. (2025) Economic instruments for a resource-efficient circular economy. Paris: OECD. https://www.oecd.org/en.
7. OECD (2016) Extended Producer Responsibility: Policy Highlights. Paris: OECD. Available at: https://www.oecd.org/environment/waste/extended-producer-responsibility.htm.
8. European Environment Agency (EEA) (2022) 'The role of environmental taxation in supporting sustainability transitions', EEA briefing. https://www.eea.europa.eu.
9. European Commission — DG CLIMA (n.d.) 'EU Emissions Trading System (EU ETS)'. https://climate.ec.europa.eu/eu-action/carbon-markets/eu-emissions-trading-system-eu-ets_en.

10. Deserno, L. (2024) 'Resource Taxes as an Instrument to Foster Circularity? Analysis of the Effects of Resource Taxation on Circular Economy Progress in Europe', Circular Economy and Sustainability. https://link.springer.com.